

## **TIJORAT BANKLARI DEPOZIT BAZASINING BARQARORLIGINI TA'MINLASH YO'LLARI**

**Shayxiyev Boburbek Ulug'bekovich**

**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi**

Tijorat banklari depozit bazasining barqarorligini ta'minlash bank tizimining uzluksiz faoliyat yuritishi, likvidlik darajasini saqlash hamda kreditlash jarayonlarining barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Depozit bazasining barqarorligi, avvalo, depozitlarning muddat tarkibi, valyuta tuzilmasi va omonatchilar segmentlari bo'yicha diversifikatsiyalanganligi bilan belgilanadi. Uzoq muddatli va barqaror depozitlarning yuqori ulushi banklarning qisqa muddatli likvidlik xatarlarini kamaytirib, resurslarni samarali rejalashtirish imkonini yaratadi.

Shuningdek, depozit bazasining barqarorligini ta'minlashda omonatchilar ishonchini mustahkamlash hal qiluvchi omil hisoblanadi. Bank tizimining shaffofligi, omonatlarning huquqiy himoyasi, kafolatlash mexanizmlarining ishonchliligi hamda foiz siyosatining prognoz qilinuvchanligi aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning bank depozitlariga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Bu esa depozitlarning kutilmagan chiqib ketish xavfini pasaytiradi.

Bundan tashqari, makroiqtisodiy barqarorlik, inflyatsiya darajasi va milliy valyutaning barqarorligi ham tijorat banklari depozit bazasining mustahkamligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ushbu sharoitda milliy valyutadagi depozitlarni rag'batlantirish, raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish va depozit mahsulotlarini innovatsion asosda takomillashtirish bank resurs bazasining barqaror o'sishini ta'minlashga xizmat qiladi. Umuman olganda, tijorat banklari depozit bazasining barqarorligini ta'minlash bank tizimining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, kreditlash salohiyatini kengaytirish hamda iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashning muhim sharti hisoblanadi.

Xususan, Prezidentimiz tomonidan bildirilgan quyidagi fikr bank depozit bazasini rivojlantirish masalasining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini yaqqol ifodalaydi: "Ayrim yurtdoshlarimizda topgan daromadini iqtisodiyotga yo'naltirish, bank depozitiga joylashtirish, aktivlarini o'z nomiga rasmiylashtirish bilan bog'liq xavotirlar bor. Shu bois deputatlarimiz va Markaziy bank xalqaro tashkilotlar bilan maslahatlashgan holda, fuqarolarimiz yurtimizda yoki chet elda shu paytgacha olgan daromad va aktivlaridan emin-erkin foydalanishiga sharoit yaratish bo'yicha takliflar tayyorlasa, o'ylaymanki, to'g'ri bo'ladi." [1] Ushbu qarash bank depozit bazasini kengaytirishning

muhim sharti sifatida huquqiy kafolatlar va ishonch muhitini shakllantirish zarurligini ko'rsatadi.

Ilmiy-nazariy nuqtai nazardan, depozit bazasining yetarli darajada shakllanishi banklarning tashqi moliyaviy manbalarga qaramligini kamaytiradi, kreditlash hajmini barqaror oshirish imkonini beradi hamda moliyaviy xatarlarni minimallashtirishga xizmat qiladi. Yuqoridagi omillarni inobatga olgan holda, bank tizimini transformatsiyalash jarayonida depozit bazasining iqtisodiy ahamiyatini kompleks ilmiy asosda o'rganish, uni shakllantirishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash hamda depozit siyosatini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqish mazkur tadqiqotning asosiy yo'nalishini tashkil etadi. Shuningdek, bank tizimini transformatsiyalash jarayonida depozit bazasining iqtisodiy ahamiyatini ilmiy asosda o'rganish, uning bank likvidligi, kreditlash salohiyati va moliyaviy barqarorlikka ta'sirini tahlil qilish dolzarb ilmiy-amaliy masalaga aylanmoqda.

Bank depozit bazasi va uning moliyaviy barqarorlikdagi o'rni iqtisodiy adabiyotlarda uzoq yillardan buyon muhim ilmiy tadqiqot obyekti bo'lib kelmoqda. Klassik iqtisodiy nazariyalarda banklar iqtisodiyotda moliyaviy vositachi sifatida jamg'armalarni investitsiyalarga aylantiruvchi muhim institut sifatida qaraladi.

Banklarning likvidlikni ta'minlashdagi funksiyasi Kashyap, Rajan va Stein tomonidan chuqur tahlil qilingan bo'lib, ular banklarni "likvidlik provayderlari" sifatida tavsiflaydi. Mualliflar bank depozitlari va kredit liniyalari o'rtasidagi muvozanat bank tizimining samarali ishlashini ta'minlashini qayd etadi.[2] Acharya va Mora esa inqiroz davrida banklarning depozitlarga tayanishi kredit taklifini barqarorlashtirishda muhim rol o'ynashini empirik jihatdan asoslaydi.[3]

Rivojlanayotgan mamlakatlar misolida olib borilgan tadqiqotlar depozit bazasini kengaytirishda ishonch va institutsional muhitning ahamiyatini ko'rsatadi. Martinez Peria va Schmukler omonatchilar banklar faoliyatidagi salbiy o'zgarishlarga sezgir ekanini va ishonch pasayishi depozitlarning qisqarishiga olib kelishini aniqlagan.[4] Anginer, Demirgüç-Kunt va Zhu esa banklar o'rtasidagi raqobat va tizimli xatarlar o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilib, depozit bazasi barqarorligi moliyaviy xavfsizlikning muhim elementi ekanligini qayd etadi.[5]


Bank tizimini transformatsiyalash jarayonida depozit bazasining iqtisodiy ahamiyatini baholash hamda empirik tahlil natijalari bank depozitlarining moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, likvidlikni mustahkamlash hamda kreditlash salohiyatini kengaytirishda muhim ichki moliyaviy manba hisoblanadi.

So‘nggi yillarda tijorat banklari depozitlarining umumiy hajmi barqaror o‘shish tendensiyasini namoyon etib, banklarning resurs bazasini mustahkamlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Xususan, aholi depozitlari hajmining oshishi banklar uchun nisbatan barqaror, arzon va uzoq muddatli moliyaviy manba sifatida ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur holat tijorat banklari depozit bazasining barqarorligini ta‘minlashda aholi omonatlarining strategik rolini yaqqol ko‘rsatadi.

Depozitlar hajmining o‘shishi banklarning likvidlik ko‘rsatkichlarini yaxshilashga ijobiy ta‘sir ko‘rsatib, ularning qisqa muddatli majburiyatlarini o‘z vaqtida va to‘liq bajarish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Natijada, bank tizimida likvidlik xatarlarining kamayishi va moliyaviy barqarorlikning mustahkamlanishi kuzatilmoqda. Bu jarayon depozit bazasining yetarli va barqaror shakllanishi bank faoliyatining uzluksizligini ta‘minlashdagi asosiy shartlardan biri ekanligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, olib borilgan tahlillar tijorat banklari depozit bazasi va kreditlash hajmi o‘rtasida ijobiy va uzviy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatmoqda. Depozitlar ulushi yuqori bo‘lgan banklarda kredit portfeli hajmining o‘shish sur‘atlari nisbatan tez kechayotgani aniqlanib, bu holat depozit bazasining kredit resurslarini shakllantirishdagi hal qiluvchi ahamiyatini tasdiqlaydi. Natijada, banklarning ichki moliyaviy manbalarga tayangan holda real sektorni moliyalashtirish imkoniyatlari kengayib bormoqda.

Aholi depozitlari ulushi yuqori bo‘lgan tijorat banklarida moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlari nisbatan yuqori bo‘lib, bunday banklar tashqi moliyaviy resurslarga kamroq bog‘liqligi bilan ajralib turadi. Bu esa depozit bazasining barqarorligi banklarning tashqi xatarlar ta‘siriga chidamliligini oshirishda muhim omil ekanligini ko‘rsatadi. Umuman olganda, tijorat banklari depozit bazasining barqarorligini ta‘minlash bank tizimining moliyaviy barqarorligi va uzoq muddatli rivojlanishining asosiy sharti hisoblanadi.



**1.-rasm. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari jami depozitlarining o‘shish dinamikasi**

Mazkur 1-rasmda O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari jami depozitlari hajmining 2021-2025 yillar davomida o‘shish dinamikasini aks ettirib, depozit bazasining barqarorligini ta‘minlash yo‘llarini tahlil qilishda muhim empirik asos bo‘lib xizmat qiladi. Grafik ma‘lumotlariga ko‘ra, 2021-yilda jami depozitlar hajmi 114 741 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 308 692,3 mlrd so‘mgacha yetgan. Bu esa tijorat banklari depozit bazasining mutlaq hajmi bo‘yicha barqaror va izchil o‘shib borayotganini ko‘rsatadi.

Ayniqsa, 2022–2023 yillarda depozitlar hajmining sezilarli oshishi va o‘shish sur‘atlarining mos ravishda 36,12 foiz va 38,77 foizni tashkil etishi bank tizimiga bo‘lgan ishonchning mustahkamlanayotgani, aholi va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning bo‘sh pul mablag‘larini bank tizimiga faol jalb etish jarayonlari kuchayganini anglatadi. Ushbu holat depozit bazasi barqarorligini ta‘minlashda ishonch omili va institutsional islohotlarning muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Biroq 2024-yilda depozitlar o‘shish sur‘atining 11,51 foizgacha pasayishi depozit bazasining barqarorligi nafaqat hajm o‘shishi, balki uning sifat jihatlari bilan ham bog‘liqligini ko‘rsatadi. Mazkur davrda o‘shish sur‘atining sekinlashuvi makroiqtisodiy omillar, inflyatsion kutilmalar yoki muqobil investitsiya instrumentlarining faollashuvi

bilan izohlanishi mumkin. Bu holat tijorat banklaridan depozit siyosatini yanada moslashuvchan va rag‘batlantiruvchi mexanizmlar asosida olib borishni talab etadi. 2025-yilda depozitlar o‘shish sur‘atining yana 27,72 foizgacha tiklanishi depozit bazasini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarning samaradorligini ko‘rsatadi. Xususan, milliy valyutadagi depozitlarni rag‘batlantirish, raqamli bank xizmatlarini kengaytirish va omonatchilar huquqiy himoyasini kuchaytirish depozit bazasining barqaror o‘shishini ta‘minlashda muhim yo‘nalishlar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shuningdek, 1-rasm tahlili shuni ko‘rsatadiki, tijorat banklari depozit bazasining barqarorligini ta‘minlash nafaqat depozitlar hajmini oshirish, balki o‘shish sur‘atlarining izchilligi va barqarorligini saqlash bilan ham bevosita bog‘liqdir. Shu bois, depozit bazasini mustahkamlashga qaratilgan institutsional, monetar va raqamli chora-tadbirlarni kompleks ravishda amalga oshirish O‘zbekiston bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xulosa qilib aytganda, bank depozit bazasini mustahkamlash bank tizimini transformatsiyalashning strategik yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash, kreditlash salohiyatini oshirish va iqtisodiy o‘shishni qo‘llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, depozit siyosatini takomillashtirishga qaratilgan izchil va tizimli chora-tadbirlar O‘zbekiston bank tizimining barqaror va raqobatbardosh rivojlanishiga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 26.12.2025 yil.  
<https://president.uz/oz/lists/view/8834>
2. Kashyap, A. K., Rajan, R., & Stein, J. C. (2002). Banks as liquidity providers. *Journal of Finance*, 57(1), 33–73.
3. Acharya, V. V., & Mora, N. (2015). A crisis of banks as liquidity providers. *Journal of Finance*, 70(1), 1–43.
4. Martinez Peria, M. S., & Schmukler, S. L. (2001). Do depositors punish banks for bad behavior? *Journal of Finance*, 56(3), 1029–1051.
5. Anginer, D., Demirgüç-Kunt, A., & Zhu, M. (2014). How does competition affect bank systemic risk? *Journal of Financial Intermediation*, 23(1), 1–26.